


N.B.Bakirova,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi*



PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA BITIRUVCHI XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional ta'lim bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Bitiruvchi xotin-qizlarning ishga joylashishdagi qiyinchiliklari, ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga moslashmagani va amaliy tajriba yetishmasligi kabi muammolarga yechim sifatida kasbiy ko'nikmalarni oshirish, amaliyot va stajirovkalarni kengaytirish, ish o'rinlari yaratish va davlat qo'llab-quvvatlovi taklif etilgan. Tadqiqot natijalari bitiruvchilar uchun bandlikni oshirishga qaratilgan amaliy choralarni ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы обеспечения трудоустройства женщин-выпускниц профессионального образования. Повышение профессиональных навыков, расширение практики и стажировок, создание рабочих мест и государственная поддержка предлагаются в качестве решения таких проблем, как трудности трудоустройства молодых женщин, неадаптированность образовательных программ к требованиям рынка труда, отсутствие практического опыта. Результаты исследования предлагают практические меры по увеличению занятости женщин.

Annotation. This article analyzes the issues of ensuring the employment of women graduates of professional education. The problems of young women in finding a job, the mismatch of educational programs with the requirements of the labor market, and the lack of practical experience are solved by improving professional skills, expanding internships and internships, creating jobs, and providing state support. The results of the study indicate practical measures aimed at increasing employment for women.

Tayanch soʻzlar. Professional taʼlim, bitiruvchi xotin-qizlar, bandlik, ishga joylashish, taʼlim dasturi, kasbiy koʻnikmalar, amaliyot, stajirovka, ish oʻrinlari, ish bozori, davlat qoʻllab-quvvatlashi, gender tengligi.

Ключевые слова. Профессиональное образование, выпускницы, трудоустройство, трудоустройство, программа обучения, профессиональные навыки, стажировки, стажировки, рабочие места, рынок труда, общественная поддержка, гендерное равенство.

Keywords. Professional education, female graduates, employment, job placement, curriculum, professional skills, internship, internship, jobs, labor market, state support, gender equality.

Kirish. Intellektuallashtirish va globallashtirishning umumjahon tendensiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning murakkablashuvi mehnat va intellektual resurslarga, shu jumladan, professional taʼlim tizimida oʻrta boʻgʻin kadrlar tayyorlashning sifatiga nisbatan qoʻyiladigan talablar ortishiga olib keladi. Taʼlim, malaka, kasbiy tajriba korxonalar (tashkilotlar) va hududlar raqobatbardoshligining garovi va barqaror iqtisodiy oʻsish omiliga aylanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida "...yoshlar oʻrtasida bandlikni taʼminlash va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash masalasi eʼtiborimiz markazida boʻladi. Buning uchun kelgusi yilda professional taʼlim tizimi mehnat bozoridagi talab va xalqaro andozalarga mos yangicha yondashuvlar asosida isloh qilinadi. Bundan buyon ishchi kasblar boʻyicha talab qoʻyishda malaka asosiy oʻringa chiqadi".

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Aholi bandligi toʻgʻrisida"gi OʻRQ-642-sonli qonuni 1-bob, 5-moddasida nazarda tutilgan kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni taʼminlash sharoitlaridagi, mehnatga haq toʻlashdagi, xizmat pogʻonalari boʻyicha koʻtarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

Professional taʼlim muassasalari bitiruvchi xotin-qizlarga mehnat bozoriga moslashuvchan va ishga yotqizilgan koʻnikmalarga ega boʻlishda yordam berishga qaratilgan, ammo bu jarayonda bir qator muammolar, xususan, taʼlim tizimi bilan mehnat bozori talablarining moslashmasligi, kasbiy koʻnikmalar yetishmasligi va ishga joylashishdagi qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Shu bois bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini taʼminlash uchun taʼlim dasturlarini modernizatsiya qilish, ularni amaliyotga yoʻnaltirish, ishga joylashish mexanizmlarini takomillashtirish va gender tengligini taʼminlash kabi amaliy choralar talab qilinadi.

Maqsad va uni asoslash. Professional taʼlim bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini taʼminlashning amaliy usullari va strategik

yo'nalishlarini ishlab chiqish. Shuningdek, ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, bitiruvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularga ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash muhim masalalardan biridir.

Professional ta'lim bitiruvchi xotin-qizlari, ayniqsa bitiruvchilar uchun mehnat bozoriga integratsiyalashishda ko'plab muammolar mavjud. Bitiruvchilar uchun kasbiy ta'lim olish va ishga joylashish imkoniyatlari uzluksiz rivojlanib bormoqda, ammo ularga to'g'ri yo'nalishlar berish zarur. Ta'lim tizimining samaradorligi, kasbiy ko'nikmalarni oshirish va amaliyotdagi tajriba bitiruvchilarning ishga joylashishdagi asosiy omillardan sanaladi.

Mazkur tadqiqotda, bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini oshirish va ularning mehnat bozoriga moslashishini ta'minlash uchun ta'lim dasturlarini va ishga joylashish mexanizmini takomillashtirish, gender tengligini ta'minlash va ijtimoiy dasturlarni kuchaytirishga yo'naltirilgan strategiyalar taklif etiladi. Bundan tashqari, bitiruvchi xotin-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularga yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlashga qaratilgan muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Mamlakatimizda ayrim sohalar kesimida kollejlarda qabul rejasi bo'yicha arxitektura va qurilish tarmog'i eng yuqori ko'rsatkichga (5350 ta) ega bo'lib, uning 1516 tasi (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 38,1 foiz) davlat buyurtmasini tashkil qilgan. Umumiy qabul rejasining 71,7 foizini (3834 ta) to'lov shartnoma asosidagi qabul tashkil qilgan. Ushbu soha bo'yicha tushgan umumiy arizalar soni 1253 tani (jami arizalar soniga nisbatan 21,6 foiz) tashkil etgan. Kollejlarda qabul rejasi bo'yicha ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari sohasi nisbatan yuqori ko'rsatkichga (5095 ta) ega bo'lib, uning 1427 tasi (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 35,9 foiz) davlat buyurtmasini tashkil qilgan. Umumiy qabul rejasining 72,0 foizini (3668 ta) to'lov shartnoma asosidagi qabul tashkil qilgan. Ushbu soha bo'yicha tushgan umumiy arizalar soni 2581 tani (jami arizalar soniga nisbatan 44,5 foiz) tashkil etgan. Respublikamizdagi kollejlarning qabul rejasi bo'yicha qishloq xo'jaligi sohasi ham nisbatan yuqori ko'rsatkichga (3100 ta) ega bo'lib, uning 886 tasi (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 22,3 foiz) davlat buyurtmasini tashkil qilgan. Ushbu soha bo'yicha umumiy qabul rejasining 71,4 foizini (2214 ta) to'lov shartnoma asosidagi qabul hisoblanib, tushgan umumiy arizalar soni 1462 tani (jami arizalar soniga nisbatan 25,2 foiz) tashkil qilgan (1-jadval).

Mamlakatimizda ayrim sohalar kesimida kollejlarda qabul rejasi bo'yicha arxitektura va qurilish tarmog'i eng yuqori ko'rsatkichga (5350 ta) ega bo'lib, uning 1516 tasi (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 38,1 foiz) davlat buyurtmasini tashkil qilgan. Umumiy qabul rejasining 71,7 foizini (3834 ta) to'lov shartnoma asosidagi qabul tashkil qilgan.

1-jadval

**O‘zbekistonda ayrim sohalarda kesimida kollejlarda
qabul rejasi va davlat buyurtmasi soni**

	Kollejlar					Texnikumlar			
	Qabul rejasi	Davlat buyurtmasi	Jami davlat buyurtmasidagi ulushi, %	To‘lov shartnoma	Tushgan hujjatlar soni	Qabul rejasi	Davlat buyurtmasi	To‘lov shartnoma	Tushgan hujjatlar soni
Veterenariya	80	15	0,4	65	65	1220	248	972	1255
Kompyuter texnologiyalari va informatika	570	120	3,0	450	430	5531	568	4963	5520
Qishloq xo‘jaligi	3100	886	22,3	2214	1462	9025	2102	6923	5704
Ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari	5095	1427	35,9	3668	2581	7520	1165	6355	5864
Aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari	60	10	0,3	50	14	406	70	336	526
Arxitektura va qurilish	5350	1516	38,1	3834	1253	3065	476	2589	2147
Jami:	14255	3974	100	10281	5805	26767	4629	22138	21016

Respublikamiz bo‘yicha texnikumlarga qabul rejasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi tarmog‘i eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, jami qabul rejasining 33,7 foizini (9025 ta) tashkil etgan. Ushbu soha bo‘yicha 2102 ta qabul (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 45,4 foiz) davlat buyurtmasiga to‘g‘ri kelgan. Umumiy qabul rejasining 76,7 foizini (6923 ta) to‘lov shartnoma asosidagi qabul tashkil qilgan. Arizalarning umumiy soni 5704 tani tashkil qilib, bu jami arizalarning 27,1 foizini tashkil etgan.

Ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari sohasi ham yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, jami qabul rejasining 7520 tasini tashkil etgan. Bu sohada 1165 ta davlat buyurtmasi (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 25,2 foiz) bo‘lgan. Umumiy qabul rejasining 84,5 foizini (6355 ta) to‘lov shartnoma asosidagi qabul tashkil qilgan. Bu soha bo‘yicha tushgan arizalar soni 5864 ta (jami arizalar soniga nisbatan 27,9 foiz) bo‘lgan.


Kompyuter texnologiyalari va informatika sohasi ham yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, jami qabul rejasining 5531 tasini tashkil etgan. Ushbu soha bo‘yicha 568 ta davlat buyurtmasi (jami davlat buyurtmasiga nisbatan 12,3 foiz) mavjud. Bu soha bo‘yicha to‘lov shartnoma asosidagi

qabullar 4963 ta (jami qabul rejasining 89,7 foizini) tashkil etgan. Tushgan arizalarning umumiy soni 5520 tani (jami arizalar soniga nisbatan 26,3 foiz) tashkil qilgan (1-jadval).

O'zbekistonda ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, tahlil davrida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha belgilangan yillik reja 117,7 foizga bajarilgan, bu esa qariyb 45 ming kishining kasbga tayyorlanishi va qayta tayyorlanishini ta'minladi.

Ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash ko'rsatkichlarining hududlar kesimi bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, Andijon (5235 ta, rejaga nisbatan – 128,2 foiz), Farg'ona (4596 ta, rejaga nisbatan – 109,6 foiz), Samarqand (4034 ta, rejaga nisbatan – 94,3 foiz), Sirdaryo (3695 ta, rejaga nisbatan – 261,7 foiz), Toshkent (3290 ta, rejaga nisbatan – 146,1 foiz) va Jizzax (3107 ta, rejaga nisbatan – 163,7 foiz) viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. (1-rasm)

Mamlakatimizda ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha yuborilganlar (44993 ta) tarkibida ayollar ulushi 69,1 foizni (31105 ta), yoshlar ulushi 55,6 foiz (24998 ta), migrantlar ulushi 11,2 foiz (5034 ta) va nogironlarning ulushi 0,2 foizni (99 ta) tashkil qilgan.




1-rasm. O'zbekistonda ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash parametrlarining bajarilishi ¹

1 Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

O'zbekistonda ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, tahlil davrida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha belgilangan yillik reja 117,7 foizga bajarilgan, bu esa qariyb 45 ming kishining kasbga tayyorlanishi va qayta tayyorlanishini ta'minladi.

Hududlar bo'yicha tahlillar shundan iboratki, ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashga yuborilganlar tarkibida ayollarning eng yuqori ulushi Farg'ona (3521 ta, 76,6 foiz), Surxondaryo (2541 ta, 76,0 foiz), Andijon (3901 ta, 74,5 foiz) va Xorazm (2027 ta, 74,3 foiz) viloyatlarida kuzatilgan. Shuningdek, ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashga yuborilganlar tarkibida yoshlarning eng yuqori ulushi Surxondaryo (2093 ta, 62,6 foiz), Sirdaryo (2267 ta, 61,4 foiz), Toshkent (2008 ta, 61,0 foiz) va Andijon (3109 ta, 59,4 foiz) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Migrantlarning kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashga yuborilganlar tarkibida eng yuqori ulushi Andijon (869 ta, 51,9 foiz), Navoiy (1124 ta, 39,7 foiz) va Samarqand (1014 ta, 25,1 foiz) viloyatlarida qayd etilgan (2-rasm).

Hududlar bo'yicha tahlillar shundan iboratki, ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashga yuborilganlar tarkibida ayollarning eng yuqori ulushi Farg'ona (3521 ta, 76,6 foiz), Surxondaryo (2541 ta, 76,0 foiz), Andijon (3901 ta, 74,5 foiz) va Xorazm (2027 ta, 74,3 foiz) viloyatlarida kuzatilgan.



2-rasm. O'zbekistonda ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash ²

Yangi professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshiriladi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi esa iqtisodiyotni taraqqiy ettirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar va xotin-qizlarning hayotda munosib o'rin topishi, natijada xalqimiz turmush farovonligini oshirish masalalarining ijobiy hal

² Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

etilishini ta'minlaydi. Zamonaviy mehnat bozorida kadrlar malakasiga bo'lgan talablar muttasil va tez o'zgaruvchidir. Bu qo'shimcha va mustaqil ta'lim olishni talab qiladi. Bu esa professional ta'lim sohasining ahamiyatini yanada oshiradi. Yangi professional ta'lim tizimini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish zarur. Buning uchun dars ishlanmalari, onlayn taqdimotlar, animatsion darslar va video-instruktorlar kabi raqamli kontentlar yaratish va ularni elektron platformalarga joylashtirish kerak.

Ikkinchidan, mehnat bozorida professional ta'lim tizimi ulushining yuqori ekanligini inobatga olib, iqtisodiyot tarmoqlarida oliy ma'lumot talab etilmaydigan ish o'rinlari uchun professional ta'lim kadrlari tayyorlash kvotalarini bosqichma-bosqich oshirish zarur.

Uchinchidan, yangi ta'lim tizimida o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni o'quv dasturlariga moslashtirish, o'quvchilar bilan o'zaro aloqa o'rnatish va kontentni samarali yetkazish kabi yangi kompetensiyalarni rivojlantirish muhimdir.

To'rtinchidan, xalqaro miqyosidagi professional ta'lim kadrlariga bo'lgan talabni qondirish va mamlakatning mehnat resurslari eksportidagi ulushini oshirish maqsadida professional ta'lim muassasalari va xalqaro mehnat bozoridagi ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash zarur.

Beshinchidan, yangi professional ta'lim tizimida o'quvchilar internet tarmog'iga ulangan holda onlayn, internetga ulanmagan o'quvchilar bilan offlayn saboqlar tashkil qilishni keng joriy qilish kerak. Bundan tashqari, professional ta'lim muassasalarining moddiy-texnik infratuzilmasini takomillashtirish, xususan, optik tolali aloqa va yuqori tezlikka ega internet bilan ta'minlash muhim vazifa sanaladi.

Ushbu vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi esa mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlarning ijtimoiy hayotda munosib o'rin topishini, oxir-oqibatda esa aholi turmush farovonligini oshirish vazifalarini ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

O'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlari uchun ish beruvchilarning takliflari hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashning yangi tizimi, shuningdek, Ta'limning xalqaro standart klassifikatori (MSKO-2011) doirasidagi

***Uchinchidan,
yangi ta'lim
tizimida
o'qituvchilarning
raqamli
texnologiyalar
bilan ishlash
ko'nikmalarini
shakllantirish,
ularni o'quv
dasturlariga
moslashtirish,
o'quvchilar
bilan o'zaro
aloqa o'rnatish
va kontentni
samarali yetkazish
kabi yangi
kompetensiyalarni
rivojlantirish
muhimdir.***

professional ta'lim darajalarini hisobga olgan holda "Professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatori" ishlab chiqilgan (2-jadval).

2-jadval

Professional ta'lim tizimida tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklar hamda kvalifikatsiyalar soni to'g'risida ma'lumot

Professional ta'lim darajalari	Bilim sohasi	Ta'lim sohasi	Ta'lim yo'nalishi	Mutaxassislik va kasblar soni	Kvalifikatsiyalar soni
3 daraja	8	22	102	25*	167*
4 daraja				227	582
5 daraja				313	707
Jami:	0	22	102	103	154
				668	1610

* Madaniyat, sanat va sport yo'nalishlari

Professional ta'lim klassifikatori O'zbekiston Respublikasining Mashg'ulotlarning milliy standart klassifikatori (MMSK) hamda Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblari klassifikatori (XALIKK) bilan integratsiyalashtirilgan.

Tadqiqotda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davridagi professional ta'lim klassifikatori bilan hozirgi klassifikator qiyosiy tahlil qilindi (3-jadval)

3-jadval

Professional ta'lim klassifikatorlarining qiyosiy tahlili

2016-yilda amalda bo'lgan klassifikator bo'yicha ma'lumot		Hozirda amalda bo'lgan klassifikator bo'yicha ma'lumot				
Klassifikator bo'limlari	MSKO-2011 bo'yicha ta'lim darajasi	Klassifikator bo'limlari	Jami	MSKO-2011 bo'yicha professional ta'lim darajalari		
	3 (o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi)			3 (boshlang'ich)	4 (o'rta)	5 (o'rta maxsus)
Bilim soha	6	Bilim soha	8	-	8	-
Tayyorlov yo'nalishi	91	Tayyorlov yo'nalishi	102	-	102	-
Kasblar	240	Kasb va mutaxassisliklar	668	252	313	103
Ixtisosliklar	672	Kvalifikatsiyalar	1610	749	707	154

3-jadvaldan ko'rinib turganidek, hozirgi professional ta'lim klassifikatori MSKO-2011 ning 3 ta tabaqali ta'lim darajasiga mos kelib, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini

qamrab oladi. Ushbu klassifikator 22 ta ta'lim sohasi, 102 ta ta'lim yo'nalishi, 668 ta kasb va mutaxassislikni, shuningdek, 1610 ta kvalifikatsiyani o'z ichiga oladi.

Malaka talablari professional standartlar va tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomalariga asoslanib ishlab chiqilgan. Professional standartlardan malaka talablariga transformatsiya qilishda, faoliyat sohasi, ob'yekti va faoliyat turlari aniqlangan. Buni inobatga olgan holda, malaka talablariga umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar kiritilib, ular kodlanadi. Malaka talabida, shuningdek, o'quv reja tuzilmasi, unga qo'yiladigan talablar va har bir fan (modul) hamda amaliyot dasturi bo'yicha bitiruvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar belgilab qo'yilgan.

Joriy yilda 21 ta ta'lim sohasi bo'yicha ta'lim standarti, boshlang'ich professional ta'lim darajasida 160 ta kasblarning, o'rta professional ta'lim darajasida 182 ta kasb va mutaxassisliklarning hamda o'rta maxsus professional ta'lim darajasida 90 ta mutaxassislikning malaka talabi va o'quv rejalari, 568 ta umumkasbiy, 852 ta maxsus fanlar va 426 ta amaliyot dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim muassasalariga yetkazilgan hamda onlayn platformaga (edu.profedu.uz) joylashtirilgan. Jumladan:

- boshlang'ich professional ta'lim darajasi (kasb-hunar maktablari) da o'qitiladigan 14 ta umumta'lim fan dasturlari, shuningdek, 237 ta umumkasbiy, 660 ta maxsus fanlar va 1225 ta o'quv, ishlab chiqarish hamda diplom oldi amaliyot dasturlari;

- o'rta professional ta'lim darajasi (kollejlar)da o'qitiladigan 390 ta umumkasbiy, 936 ta maxsus fanlar va 624 ta o'quv, ishlab chiqarish hamda diplom oldi amaliyot dasturlari;

- o'rta maxsus professional ta'lim darajasi (texnikumlar)da o'qitiladigan 450 ta tabiiy va gumanitar fanlar, 1080 ta maxsus fanlar va 448 ta o'quv, ishlab chiqarish hamda diplom oldi amaliyot dasturlari ishlab chiqilgan.

Yakuniy qism. Professional ta'lim bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini ta'minlash masalasi, ayniqsa, gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ular uchun kasbiy ta'lim olish va ishga joylashish imkoniyatlari kengaymoqda, ammo ushbu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud. Ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashmasligi, kasbiy ko'nikmalarning yetishmasligi va genderga asoslangan to'sqinliklar ularning ishga joylashishini qiyinlashtiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bandlikni ta'minlash uchun ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, amaliyot va stajirovkalarni kengaytirish,

Malaka talablari professional standartlar va tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomalariga asoslanib ishlab chiqilgan. Professional standartlardan malaka talablariga transformatsiya qilishda, faoliyat sohasi, ob'yekti va faoliyat turlari aniqlangan.

ishga joylashish mexanizmini takomillashtirish, gender tengligini ta'minlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi dasturlarning samaradorligini oshirish kerak. Bu choralar bitiruvchi xotin-qizlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvi va kasbiy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan strategiyalar, ularning ishga joylashishini osonlashtirishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan choralar bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini oshirish va ularga ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan muhim qadamlar bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holatda quyidagicha taklif va tavsiyalar berish mumkin:

✓ Ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish. Professional ta'lim muassasalaridagi ta'lim dasturlari mehnat bozori talablariga mos bo'lishi kerak. Buning uchun ishlab chiqarish va ta'lim orasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, yangi texnologiyalar va sohalarga mos kasbiy ko'nikmalarni o'rganishga e'tibor qaratish zarur. Bundan tashqari, ta'lim dasturlarida genderga qaramay, barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan yondashuvlar qabul qilinishi kerak.

✓ Amaliyot va stajirovkalarni kengaytirish. Bitiruvchi xotin-qizlarning mehnat bozoriga integratsiyasini osonlashtirish uchun ularga ishlab chiqarishdagi amaliyot va stajirovkalarni ko'paytirish kerak. Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yosh bitiruvchi xotin-qizlarga o'z kasbiy tajribasini oshirish uchun imkoniyatlar berish muhim. Shuningdek, ularga yangi ish o'rinlari yaratishda ko'maklashish maqsadida mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va tadbirkorlik sektori bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur.

✓ Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Davlat tomonidan bitiruvchi xotin-qizlarning bandligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar va grantlarning kengaytirilishi zarur. Bu orada bitiruvchi xotin-qizlar uchun kasbiy ta'lim va ishga joylashishning yangi imkoniyatlarini yaratish, malaka oshirish va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash dasturlarini tatbiq etish muhim. Shuningdek, ishga qabul qilish jarayonida genderga asoslangan farqlashlariga yo'l qo'ymaslik uchun qonunchilikni kuchaytirish lozim.

✓ Tadbirkorlikni rivojlantirish. Bitiruvchi xotin-qizlar uchun tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida maxsus treninglar, biznes rejalarini ishlab chiqish bo'yicha kurslar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish zarur. Bitiruvchi xotin-qizlarning biznesda

muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun ishlab chiqarish va xidmatlar sohasidagi yangi imkoniyatlardan foydalanish muhim.

✓ Jamiyatdagi tasavvurlarni o'zgartirish. Bitiruvchi xotin-qizlarning mehnat bozoriga moslashishini qo'llab-quvvatlash uchun jamiyatdagi genderga oid stereotiplar va to'sqinliklarni bartaraf etish zarur. Hukumat va ta'lim muassasalari ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy kampanalarni tashkil etish, gender tengligini va ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini ta'minlashga yordam beradi.

✓ Ishga joylashish to'g'risidagi axborot tizimini yaratish. Bitiruvchi xotin-qizlar uchun ishga joylashish jarayonini osonlashtirish maqsadida ishga joylashish platformalarini va axborot tizimlarini tashkil etish kerak. Bunga, ijtimoiy media, onlayn platformalar va maxsus veb saytlar orqali ularning kasbiy imkoniyatlari va ish o'rinlari haqida ma'lumotlar bilan ta'minlash kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт Дарслик. – Т.: «FAN», 2019 йил. – 592 б.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Инсон тараққиёти. Дарслик. – Т.: «Fan va texnologiya», 2013. – 476 б.
3. Абдурахманов К.Х., Зокирова Н.К. Человеческое развитие: учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО «РЭУ им.Г.В.Плеханова», 2014. – 320 с.
4. Абдурахманов Қ.Х. Оламни маҳлиё айлаган диёр. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2016. – 252 б.
5. Абдурахманов Қ.Х. Ўзбекистонда инсон омили ва манфаатлари э энг олий кадрият. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2017. - 364 б.
6. Абдурахманова Г.Қ. Кичик бизнессда аҳолини иш билан таъминлаш. Монография. – Т.: Иқтисодиёт, 2014. – 216 б.
7. Абдуқудусов О. Касб-ҳунар педагогикаси. Дарслик. – Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2014. – 340 б.
8. Алижонов Ў.М. Касб-ҳунар маълумотли кадрлар тайёрлашнинг давлат бюртмаларини шакллантириш механизмлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил.
9. Алижонов Ў.М. Меҳнат бозорида касб-ҳунар маълумотли кадрларга эҳтиёжни шакллантириш усулларини такомиллаштириш. Автореферат. – Тошкент, 2019.
10. Балдин С.С. Профессионально-техническое образование в России. Историография проблемы // Историография. – 2006. – №1. – С.125-140

11. Батышев С.Я. История профессионального образования в России / С.Я Батышев. – М.: Российская академия образования. Ассоциация «Профессиональное образование», 2003. – 663 с.
12. Белозерцев, Е.П. Педагогика профессионального образования: учебник / Е.П.Белозерцев, А.Д.Гонеев, А.Г.Паиков, под ред. В.А.Сластенина, 4-е изд., стер. — М.: ИЦ Академия, 2008. - 368 с.
13. Боровская Н.Е. Опыт развития профессионального образования в Китае: центр – регионы // Развитие региональных систем профессионального образования – реалии, подходы, возможности (проект «В мир профессий через образование»). – М., 2010.
14. Васильев В.Н., Гуртов В.А., Питухин Е.А. и др. Рынок труда и рынок образовательных услуг в субъектах РФ. – М.: Техносфера, 2007. – 680 с.
15. Веблен Т. Теория праздного класса. – М.: Прогресс, 1984.- 367 с.
16. Глоссарий терминов Болонского процесса // http://www.ecommis.eu/downloads/related-documents/Bologna_glos_ru.pdf
17. Друкер П. Ф. Задачи менеджмента в XXI веке. — М.: Вильямс, 2003. - 272 с.
18. Дубянская Г.Ю. Императивы развития в первой половине XXI века. Экономика, основанная на знаниях и инновациях: концептуально-теоретические основы. – М.: МАКС Пресс, 2009. - 295 с.